



**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2022- Yilning yanvar-iyul oylarida



Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari

Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari orasida xizmatlar sohasi ustunlik qiladi.

Ilg'or mamlakatlarning zamonaviy rivojlanish darajasi turli xil xizmatlar ishlab chiqish va ularning bozorini jadal rivojlanishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasi jamiyat shakllanishining asosiy mezonidir.

XIZMATLAR

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
- 8 699,5 mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi –
68,5 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari –
113,2 %



**2022- yil
yanvar-iyul**

SOHASI

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –
2541,1 ming so'm

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi –
59,5 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari –
110,7 %




Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 699,5** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 559,0** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,2** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari





Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-iyul oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|--|-------------------|---|
| Xizmatlar – jami | 8699,5 | 113,2 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 422,0 | 122,8 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1511,7 | 126,5 |
| Transport xizmatlari | 1864,3 | 110,8 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 1782,3 | 109,7 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 253,4 | 104,7 |
| Savdo xizmatlari | 2785,2 | 109,0 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 214,1 | 110,9 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 301,5 | 107,7 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 107,5 | 103,0 |
| Ijara xizmatlari | 223,2 | 120,7 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 299,7 | 105,7 |
| Shaxsiy xizmatlar | 293,7 | 109,0 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 109,2 | 104,7 |
| Boshqa xizmatlar | 313,9 | 116,6 |



Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da





Dastlabki ma'lumotlar


2022-yil yanvar-iyul oylari

2022- yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari hajmi **1 864,3** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **10,8 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **21,4 %** ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar-iyul oylarida)

Boshqa
transport
faoliyati

4,4 %



95,6 %

Avtomobil
transporti
xizmatlari

2022- yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **95,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **96,4 %** ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari




Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **32,0 %** ni tashkil etib, bu **2 785,2** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **2 283 4** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **32,0 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari





Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **86,2 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **9,4 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**3,9 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi, % da

(2022-yil yanvar-iyul oylarida)

Ulgurji savdo xizmatlari
(avtomobillar va
mototsikllar
savdosidan tashqari)

Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo bo'yicha
xizmatlar

Avtomobillar va
mototsikllar ulgurji va
chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda

9,4

86,2

3,9

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo ulushi **85,5 %** ga yetdi

7

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish



Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022-yil yanvar-iyul oylarida)

2022- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 511,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1175,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning shu davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **17,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **16,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **336,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **26,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021-yilning yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati **30,1 %** ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **89,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oyi yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,3 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **5,0 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2022-yil yanvar-iyul oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **89,9 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,1 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **5,1 %**.



Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari






Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022-yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **46,5** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,5 %** ni tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,7 %** ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021-yil.
yanvar-iyul oylari

2022-yil.
yanvar-iyul oylari



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar





Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari


2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **48,7** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

**2021-yil.
yanvar-
iyul oylari**

**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

**2022-yil.
yanvar-iyul
oylari**



2022- yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **94,1** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **94,2** % ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022-yil yanvar-iyul oylari



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligi, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

**2541,1
ming so'm**

**409,0
ming so'mga**



110,7 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2541,1** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **110,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:
2021- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2131,1** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,6 %** da qayd etilgan.